



TRITIKALE GENOTIPLARINING NAZORAT KO'CHATZORIDA FENOLOGIK KUZATUVLARI

Jalg'asbaev Arzubay Biysenbay o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktorant

Telefon raqam: (88)657-12-28

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16639747>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 25-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 31-Iyul 2025 yil

KEYWORDS

*tritikale nav va namunalar,
unib chiqish, tuplash,
nayshalash, boshqlash,
boshqlashgacha bo'lgan kun,
nazorat ko'chatzori.*

ABSTRACT

Maqolada tritikale genotiplarining fenologik kuzatuvlar olib borish jaroyonidan vegetatsiya davrining boshqlashgacha bo'lgan kuni bo'yicha tadqiqot natijalari haqida so'z yuritiladi. Bunda tritikalening 15 ta nav va tizmalari tadqiqotimiz o'bekti bo'lib xizmat qiladi.

Kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish maydonlari yanada qisqarishini hisobga olib, boshqli don ekinlari hosildorligini oshirish, seleksiya ishlarini kuchaytirish maqsad qilingan. So'nggi yillarda CIMMYT tomonidan o'tkazilgan naslchilik tadqiqotlarida tritikale hosildorligining o'sish sur'ati non va makaron bug'doyidan yuqori ekanligi aniqlandi [1].

Tritikale ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ular bug'doy donalariga qaraganda ko'proq azotga ega ekanligi aniqlangan [2]. Bu holat tritikale yetishtirishning chekka hududlarda raqobat nuqtai nazaridan bug'doy yetishtirishdan yaxshiroq ekanligini va ishlab chiqaruvchining daromadi ko'proq bo'lishini aniq ko'rsatib berdi [3].

Seleksionerlar tomonidan tritikale bo'yicha genetik takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Kerakli xususiyatlarga ega bo'lgan ko'proq tritikale genotiplari ishlab chiqilsa, ulardan foydalanish sohalari yanada kengayadi [4].

Tritikalening butun vegetatsiya davrida rivojlanish jarayoni bug'doynikiga o'xshaydi. Tritikales odatda bug'doy boshqlaridan balandroq va har boshqda ko'proq gul bo'ladi. Qo'shimcha qo'llaniladigan o'g'itlash donni to'ldirish va don shakllanishida samarali omil emas. Biroq, ma'lumki, optimal azotli o'g'itlarni qo'llash kvadrat metr boshiga boshqlar sonini va boshqdagidagi donlar sonini past miqyosda oshiradi [5].

O'zbekistonda ekiladigan navlari amal davri 165-200 kun davom etadi. [6] Tritikale (*triticum* bug'doy, *secale* javdar) bug'doy javdar duragayi ikki xil o'simlik xususiyatlarini uzida mujassamlashtirgan. Tritikaleni bahorgi va kuzgi shakllari mavjud. [7]

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda tajribalarni joylashtirish va tadqiqot davomida fenologik kuzatuvlar, hisob va tahlillar «Butunittifoq O'simlikshunoslik instituti VIR» (1984) uslubi bo'yicha olib borildi.

Natijalar va ilmiy munozara. 2024 - yil hosili uchun Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba maydonlarida seleksiya ko'chatzorida 23 oktabr kuni tritikalening 15 ta nav va namunalari, 3 qaytariqda 51 paykalchada, har paykalcha 5 m² maydondan maxsus ekish seyalkasi (SSFK-10-25 rusumli) bilan ekish ishlari bajarildi.

Reja va dasturga asosan agrotexnik tadbirlar o'tkazilib, fenologik kuzatuvlar olib borildi. Nav va namunalarning unib chiqish fazasi kuzatilganda 2023 yil 6-8 noyabr kunlari to'liq unib chiqish fazasi kuzatildi.

Fenologik kuzatuvlar natijasiga qaraganda 27-29 noyabr kun oralig'ida tuplash fazasi, 14 fevraldan 28 fevralgacha naychalash fazasiga o'tishi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval.

Tritikale nazorat ko'chatzori kursatkichlari

No	Nav va namunalar nomi	Unib chiqish, sana	Tuplash, sana	Naychalash, sana	Boshoqlash, sana	Boshoqlashgacha bo'lgan kun
1	SARDOR	23.okt	24.noya	15.yanv	18.mar	147
2	KR22-TC-PYT-214	24.okt	23.noya	17.yanv	19.mar	147
3	KR22-TC-PYT-116	22.okt	19.noya	15.yanv	23.mar	153
4	KR22-TC-PYT-604	24.okt	22.noya	22.yanv	17.mar	145
5	KR22-TC-PYT-621	23.okt	17.noya	23.yanv	18.mar	147
6	KR22-TC-PYT-225	24.okt	24.noya	25.yanv	17.mar	145
7	KR22-TC-PYT-255	24.okt	19.noya	19.yanv	25.mar	153
8	KR22-TC-PYT-274	23.okt	22.noya	22.yanv	27.mar	156
9	KR22-TC-PYT-288	22.okt	23.noya	24.yanv	26.mar	156
10	KR22-TC-PYT-258	24.okt	17.noya	22.yanv	25.mar	153
11	KR22-TC-PYT-116	23.okt	19.noya	17.yanv	23.mar	152
12	KR22-TC-PYT-258	22.okt	24.noya	19.yanv	19.mar	149
13	KR22-TC-PYT-604	24.okt	22.noya	23.yanv	18.mar	146
14	KR22-TC-PYT-214	22.okt	23.noya	22.yanv	22.mar	152
15	KR22-TC-PYT-288	23.okt	19.noya	25.yanv	23.mar	152
Eng yuqori kursatkich		24.okt	24.noya	25.yanv	27.mar	156
O'rtacha kursatkich		23.okt	21.noya	20.yanv	21.mar	150
Eng past kursatkich		22.okt	17.noya	15.yanv	17.mar	145

Eng muxim ko'rsatkichlaridan biri boshoqlash fazasi, bu fazada esa 22-30 mart kunlari, ya'ni 9 kun davom etganligi kuzatildi.

Shuningdek, 22-26 may kunlari to'liq pishish fazasi kuzatildi. Jumladan, andoza Sardor navida vegetatsiya davri 198 kun davom etgan bo'lsa, KR22-TC-PYT-275, KR22-TC-PYT-183, KR22-TC-PYT-601, KR22-TC-PYT-663, KR22-TC-PYT-661, KR22-TC-PYT-289, KR22-TC-PYT-498, KR22-TC-PYT-620, KR22-TC-PYT-467 tizmalari andoza navdan erta pishganligi, 2 ta KR22-TC-PYT-591 va KR22-TC-PYT-518 tizmalari esa andoza nav bilan teng pishganligi, qolgan 6 ta tizmalar andoza navdan kech pishganligi kuzatildi (1-jadval).

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, tadqiqotda fenologik ko'rsatkichlari bo'yicha tritikalening nazorat ko'chatzorida o'rganilgan 15 ta nav va tizmalar orasida KR22-TC-PYT-604 va KR22-TC-PYT-255 tizmalarda boshqalashgacha bo'lgan kun hisobidan andoza navdan 2 kunga ertachi bo'lgan ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi va seleksiyaning keyingi bosqichlariga o'tkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guedes-Pinto, H., Darvey, N. va Carnide, V. P. (2012). Tritikale: bugun va ertaga. Springer, Dordrecht.
2. Ortiz-Monasterio, J.I., Sayre, K.D. va Pfayfer, W.Ho. (1993). CIMMYTs non bug'doylari va to'liq va 2D (2R) o'rnini bosuvchi tritikales o'rtasida azotni qayta tiklashdagi farqlar. Tritikale mavzulari. 11:6-9 (Xalqaro nashr, Yangi Janubiy Uels).
3. Varughese, G. (1986). Tritikale - chekka muhit uchun ekin. CIMMYT tadqiqotining diqqatga sazovor joylarida. 1985. CIMMYT. Meksika, DF, 72-80.
4. Naneli, I. "Tritikale." Iksad Yayıncılık, Ankara (2024).
5. Kochhann, C. H., Baier, A. C. va WiethOlter, S. (1990). Tritikale, bug'doy va javdarda hosil ko'rsatkichi, hosil komponentlari va azot miqdori. Proc. 2- Int . Tritikale Symp., Passo Fundo (Braziliya), 71-73.
6. Tritikale –Vekipidiya <https://uz.wikipedia.org>
7. Onlayn ensklopidiya. Qomus. Info